

boshqa fond, kutubxonalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ularga doir qimmatli ma'lumotlar bera oluvchi bir qator nodir manbalar xususi kutubxonalar, adabiyotshunoslar, ushbu olimlarning shogirdlari va avlodlari qo'lida ham mavjud. Ularni bir joyga jamlash va ilmiy-tadqiqot muassasasiga aylantirishda uy-muzeyini tashkil etish muhim qadamlardan biri bo'ladi. Bunday muassasa, ularning tug'ilib o'sgan maskani – Xo'qandi latifda tashkil etilishi har tomonlama muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Самандар Э. Улар шундай эдилар. // Пўлатжон домулла Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи: Қаюмов А.). –Тошкент: Tamaddun, 2011. – Б.377.
2. Пўлатжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий (нашрга тайёрловчи: Қаюмов А.). –Тошкент: Ўз Р ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б.664.
3. №42. Po'latjon Qayyumov (1885-y. – 27-avgust 1964-y.) yig'ma jildi. – Qo'qon: Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxiv materiallari.
4. Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси, 2006-йил 20-апрел сони. –Б.2.
5. Қаюмов А. Асарлар. 7-жилд. 2-китоб. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2012. –Б.5.
6. Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. –Toshkent: O'z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734. –631 s.
7. Хусаинова Ф. Шоира Анбар Отиннинг янги топилган рисоласи. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, №1. –Б.42-48.
8. Хусаинова Ф. Демократ шоира Анбар Отин. –Тошкент: Қизил Ўзбекистон, 1964. – Б.34-41.
9. Хусаинова Ф. Демократ шоира – Анбар Отин. Фил. фан. номз...дисс. –Тошкент, 1966. –167 б.
10. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. –280 б.
11. Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2007. –26 б.
12. Қобилова З. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърини мисолида): Филол. фан. д-ри ... дис. –Фарғона, 2022. –260 б.
13. Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2006. –23 б.
14. Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент, 2003. 156 б.
15. Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. –Тошкент, 2003. – 24 б.
16. Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поетикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2008. – 24 б.
17. Сулаймонов И. Қорий Хўқандий адабий мероси (монография). –Тошкент: Tamaddun, 2014. –196 б.
18. Самандарова С. Тазкираи Қайюмий – адабий манба: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 1996. –26 б.
19. Деҳқонов А. Муҳайирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2007. –25 б.
20. Пардаев Қ. Муқимий шеърининг матн тарихи, таҳрири ва талқини: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2020. –310 б.
21. Муҳиддинова Н. Мирҳасан Садойининг адабий мероси. (Монография) – Тошкент: Mumtoz so'z, 2015. –143 б.

22. Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: "Мажмуаи шоирон"да анъанавийлик ва ўзига хослик: Филол. фан. бўйича фал. д-ри (PhD) дис. автореф. –Фарғона, 2021. –58 б.
23. Мадаминов А., Холматов Т. Устоз муаллим. // Меҳнат байроғи, 1985-йил 27-ноябр сони. –Б.3.
24. Пулатжон Қайюмий. Тазкират уш-шуаро. 1-китоб. (нашрга тайёрловчи: Қайюмов А.). –Тошкент: Ўз Р ФА Давлат адабиёт музейи, 2006. –Б.4-5.
25. Po'latjon domullo Qayyumiy. Tazkirat ush-shuaro. –Toshkent: O'z R FA Shl Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti №10018. –S.464.
26. Po'latjon domullo Qayyumiy tavalludining yuz yilligi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Qo'qon: Qo'qon DPI, 1985. Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga doir maqolalar parokanda holidagi Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasida №4019, fotograf I.Z.Mamarahimov tomonidan olingan suratlar esa, №1131 yig'ma jildlarda saqlanmoqda.
27. <http://www.navoimuseum.uz> (O'z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi sayti) materiallari.
28. Олимов М. Лазиз Қайюмов. Адабий портрет. –Тошкент, 1980.
29. Олимов М. Лазиз Қайюмов (Хотиралар). –Тошкент. 2005.
30. Po'latjon domullo Qayyumiy xatlari. –Andijon: Iskandarshoh Madgaziyev shaxsiy kutubxonasi materiallari.

ILMIY-AMALIY ANJUMANLAR – ADABIY TURIZMNING SHAKLI SIFATIDA **(Alisher Navoiyga bag'ishlangan anjumanlar misolida)**

Asqarov Dilmurod

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizmning bir turi hisoblangan badiiy turizm haqida so'z boradi. Badiiy turizmning shakllari, ularning respublikamiz turizm infrotuzilmasidagi o'rni masalasi tahlil qilingan. Konferensiyalar, simpoziumlar va anjumanlar misolida badiiy turizmning yuzaga chiqishi asoslangan. Ilmiy anjumanlarda Alisher Navoiy hayoti va ijodi, navoiyshunlikda jahon hamda respublikamiz olimlari olib borayotgan tadqiqotlarga to'xtalib o'tilganligi misollar vositasida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, konferensiya, anjuman, iqtisodiyot, tarix, madaniyat, an'ana.

Kirish: Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab mamlakatlarda muhim daromad manbalaridan biriga aylangan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va mamlakatga ko'proq sayyohlarni jalb qilish maqsadida so'nggi yillarda yangi turizm turlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lib, qadimiy shaharlar, noyob me'moriy yodgorliklar, va betakror tabiiy manzaralari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, an'anaviy turizm shakllari bilan cheklanmasdan, eko-turizm, agroturizm, ekstremal turizm, gastronomik va etnik turizm kabi yangi yo'nalishlar ham rivojlanmoqda. Bu turizm turlarining joriy etilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki O'zbekistonning turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga va xalqaro maydonda yanada tanilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda turizm dunyosida yangi va innovatsion turlar paydo bo'lmoqda. Ulardan biri ilmiy amaliy anjumanlar va konferensiyalarni o'z ichiga olgan turizm turi bo'lib, bu turizmning badiiy turlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ilmiy amaliy anjumanlar badiiy turizm turi sifatida nafaqat ilm-fan va tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilish, balki madaniy va badiiy tajribalarni ham o'zida jamlaydi.

ASOSIY QISM: Ilmiy amaliy anjumanlar, konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar – bu turdagi tadbirlar ilm-fan, texnologiya, ijtimoiy va madaniy sohalarda yangi g'oyalar almashish, muhokama qilish va tajriba almashish imkonini beradi. Odatda, ushbu tadbirlar ilmiy markazlar, universitetlar yoki tashkilotlar tomonidan tashkil etiladi. Biroq, ularning turizm bilan bog'liqligi ortib bormoqda, chunki ishtirokchilar faqat ilmiy maqsadlar uchun emas, balki joylarning madaniy va badiiy boyliklaridan ham foydalanishni xohlaydi.

Badiiy turizm sohasida ilmiy amaliy anjumanlar o'ziga xos ahamiyatga ega. Badiiy turizm turli san'at shakllari, madaniyat va an'analarni o'z ichiga oladi. Ilmiy amaliy anjumanlar, o'z navbatida, ko'plab ishtirokchilarni birlashtiradi, bu esa madaniy almashuvni, san'at va adabiyotga qiziqishning oshishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, badiiy turizm ilmiy anjumanlar orqali ko'plab san'at ko'rgazmalarini, musiqiy festivallarni yoki teatr asarlarini o'rganish va tomosha qilish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda har yili turli mavzularda ilmiy anjumanlar tashkil qilinadi. Mazkur anjumanlar ichida adabiyot sohasidagilarining ham o'z o'rnini bor. Alisher Navoiyga bag'ishlangan ilmiy anjumalar ichida an'ana darajasiga ko'tarilganlarini ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan an'anaviy ilmiy anjumanini misol qilishimiz mumkin. 2025-yil mazkur anjumanning 70-yig'ilishi o'tkazildi. Mazkur institut uzoq yillar davomida uchbu an'anani amalga oshirib kemoqda. Anjumanda Alisher Navoiyning mumtoz adabiyot tarixi rivojida tutgan o'rnini, Navoiy asarlar poetikasi, asarlarining manbaalari, xalq og'zaki ijodida Navoiy o'rnini va ahamiyati, Alisher Navoiyning tilshunoslik fani rivojiga qo'shgan hissasi hamda Navoiy asarlarining til xususiyatlari masalalari tadqiq qilindi. Anjumanda Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik ilmidagi tutgan o'rnini masalalari yuzasidan yurtimiz va jahon navoiyshunoslari o'z fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashishdi. Konferensiyaga taqdim etilgan ma'ruzalarning mavzulari rang-barang bo'lib, ularda navoiyshunoslikdagi yangi qarashlar, Navoiy asarlarini adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etish, Navoiyning tarjimashunoslikka qo'shgan ulkan hissasi va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Mazkur anjumanning nufuzini so'ngi 3 yil misolida ko'rib chiqsak:

	2023	2024	2025
Anjumanda ishtirok etgan umumiy qatnashchilar soni	64	70	100
Xorijiy olimlar ishtiroki	7	12	20
Bevosita anjumanga kelib, ishtirok etgan xorijiy olimlar	5	8	12
Nashrga qabul qilingan maqolalar	64	70	100

Anjuman uchun har yili 200 dan ortiq qatnashish istagidagi talabgorlardan maqola kelib tushadi. Tahrir hay'ati ularni saralab, nashr uchun qabul qilib oladi. Ilmiy anjumanda qo'shni Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Afg'oniston davlatlari olimlari, shu bilan birga Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya, AQSh, Germaniya davlatida navoiyshunoslik va mumtoz adabiyot bilan ilmiy tadqiqot olib borayotgan professor, tadqiqotchilar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur anjuman orqali yutimizga tashrif buyurgan olimlar Alisher Navoiyning jahon ilm-fanidagi o'rnini va mavqeyi, navoiyshunoslikda erishilayotgan yutuqlar, o'zbek ilm-fanining sohada olib borayotgan ilmiy izlanishlarining samaradorligini ta'kidlashadi.

Istanbul Kultur universiteti professori Vahit Turk Turkiyada Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi yuzasidan olib borilayotgan yangi tadqiqotlarni bayon qilarkan, xususan, Alisher Navoiy asarlarida o'g'uzcha unsurlar tahlili misolida tushuntirib beradi.

Ozaybayjon Bilimlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institute “Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalar” bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Almaz Ulvi Ozarbayjonda navoiyshunoslik sohasida erishilgan yutuqlar va vazifalar haqida fikr yuritib, ozar tilida nashr qilinayotgan Navoiy asarlari, o‘zbek navoiyshunoslarining ozar tiliga tarjimalari haqida ham aytib o‘tdi.

Yuqoridagi ishlar natijasida yurtimizga tashrif buyurgan olimlar anjuman doirasidan muzeylarga, tarixiy joylarga sayohat qilish imkoniga ega bo‘lishadi. Yurtimiz tarixi, madaniyati, adabiyot sohasida amalga oshirilayotga ishlar haqida ham ma‘lumot berib boriladi.

Mavzu doirasida Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi va targ‘ibi bilan Toshken davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti jamoasi ham muntazam ish olib borishadi. Mazkur universitet o‘n yil davomida “Alisher Navoiy va XXI asr” ilmiy anjumanini tashkil qilib kelmoqda. Anjumanda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek navoiyshunosligining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Universitet yillar davomida yetakchi xorijiy olimlarning yutimizga tashrifi, respublikamizdagi adabiy turizmning rivojlanishiga katta xissa qo‘shib kelmoqda. O‘zbek madaniyatining xorijiy davlatlarga ham yoyish, o‘zbek ilm-faning bugungi nufuzi bilan ham tanitishni o‘z oldiga maqsad qilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yillarda mazkur anjuman hamkor davlatlarda ham tashkil qilinayotganligi, amalga oshirilyotgan ishlarning samaradorligini ko‘rsatib turibdi. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘istonda o‘tkazilgan anjumanlar doirasida respublikamizning yetkchi olimlari sohaga oid yangilik va tadqiqotlar natijasi bilan xorijiy ilmiy jamoalarni ham tanishtirib kelishmoqda.

Anjumanda Navoiy ijodini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada oshib borayotgani, uning asarlari olamshumul ahamiyatga egaligi va butun dunyo Navoiy shaxsiga hurmat bajo etishining boisi u ilgari surgan g‘oyalar hech qachon eskirmasligida ekanligi ko‘rsatib beradi. Alisher Navoiy o‘zining purhikmat asarlari, sermazmun hayot yo‘li, betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan jahon adabiyoti, ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Navoiy ijodi asrlar osha bashariyatga ezgulik va kamolotdan saboq berib kelmoqda.

Xulosa. Yurtimizda buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi “Navoiy va Sharq renessansi” mavzuida xalqaro simpozium o‘tkazilishini an‘ana tusiga kiritgan. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan to‘rtinchi bor tashkil etilgan bu yilgi tadbirda Belgiya, AQSH, Vengriya, Pokiston, Rossiya, Eron, Misr, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Kipr, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi 20 ga yaqin davlatning, shuningdek, respublikamizning taniqli navoiyshunoslari anjuman ishining yuksak saviyada o‘tkazilishiga xissa qo‘shishdi. Mazkur xalqaro simpozium doirasida Navoiy davlat universiteti galereyasida Alisher Navoiy siymosi va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazma ish boshladi. Galereyada universitetning san‘at sohasidagi ijodkor ustoz va talabalarining mehnati natijasi o‘laroq yaratilgan 100 dan ortiq san‘at asarlari namoyish etiladi. Navoiy asarlarida mujassam bo‘lgan ezgu g‘oyalarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladigan badiiy ekspozitsiya natijasida adabiy turizm ishtirokchilari, xorijiy olimlar mamlakatimiz tarixi, erishayotgan yutuqlari, amaliy san‘at vakillarining mahoratiga ham guvoh bo‘lishlarini aytib o‘tish joiz.

Mazkur anjuman, simpoziumlar nafaqat ilmiy bahs-munozaralar, balki ma‘naviy hayot, madaniyatlar almashinuvi uchun ham foydalidir. Ilmiy amaliy anjumanlar badiiy turizm turi sifatida yangi va qiziqarli bir yo‘nalishdir. U nafaqat ilmiy faoliyatni rivojlantirish, balki madaniyat, san‘at va tarixni kashf qilish imkoniyatini ham yaratadi. Ilmiy anjumanlar turizm sohasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shu tariqa, ilmiy amaliy anjumanlar badiiy turizmning ajralmas qismiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov, M., To'rayev, R. O'zbekiston turizm sohasining rivojlanishi va istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. H.R. Hamroyev, Turizmologiya / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 236 b.
3. ALISHER NAVOIY VA XXI ASR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari; / mas'ul muharrir Shuhrat Sirojiddinov. – 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025.
4. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.
5. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / – "Yashil yaproq nashriyoti". – Toshkent, 2025. – 533 b.
6. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.

TARIXIY ADABIY JOYLAR VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Imomaliyeva Musharrafxon
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Tursunova Namunaxon
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
namunaxon1992@gmail.com
Qo'qon universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan ijodkorlar uy-muzeylari haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hujra uy-muzeysi, Hamza Hakimzoda Niyoziy uy-muzeylari hozirgi kundagi holatlari bayon etilgan. Adabiy turizmni rivojlantirish bo'yicha ba'zi fikr-mulohazalar, takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, Qo'qon, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hujra uy-muzeysi, Hamza Hakimzoda Niyoziy, majmua, uy muzey, bog', ma'naviyat.

Kirish. O'zbekistonning boy adabiy merosiga ega bo'lgan shaharlaridan biri Qo'qon shahridir. Qadimiy buyuk ipak yo'li yo'nalishida turgan bu shahar, asrlar davomida turli madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Ammo Qo'qonni yanada ajralib turadigan jihati: bu uning adabiy merosidir. Shahar o'zbek va jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoir va yozuvchilarning Vatani sifatida tanilgan.

Qo'qon adabiy maktabining ildizlari XIX asrga borib taqaladi. Bu davrda shahar Movarounnahrning madaniy markazlaridan biriga aylangan. Qo'qon xonlari san'at va adabiyotga homiylik qilishgan, shu sababli shaharda ko'plab shoirlar, olimlar va san'atkorlar yashab ijod qilgan. Shahar hashamatli yodgorliklarga va ulug'vor madrasalarga boy. Qo'qon ilm-fan rivojlanishining markazi sifatida Umarxon Amiriy davrida, nihoyatda rivojlandi. Qo'qon adabiy muhiti shakllandi.[2.669] Bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Shaharning diqqatga sazovor bo'lgan qadimiy inshootlaridan Xudoyorxon saroyi, Jomiy masjidi, Modarixon maqbarasi, Norbutabiy madrasasi, Qo'qon xonlarining maqbarasi, Dahma-i Shohon kabi yodgorliklari bugungi kunda ham ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Adabiy turizm nuqtayi nazaridan Qo'qonning eng qiziqarli jihati, bu yozuvchilar va shoirlarning hayoti va ijodi bilan bog'liq joylarni o'rganishdir. Mazkur maqolada Qo'qonda yashab, ijod qilgan